
Tadbirkor ayollar uchun o'quv seminari o'tkazildi

Respublika Markaziy bank departamenti direktori Dilbarxon Abdug'anieva rahbarligida "Moliyaviy savodxonlik kundalik hayotimizda" mavzusida o'quv seminari bo'lib o'tdi. Unda Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Dilshodaxon Xolmatova va mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar faollari, shuningdek, tadbirkor ayollar ishtirok etdilar.

Seminar avvalida moliyaviy savodxonlik tushunchasiga mutaxassislar tomonidan ta'rif berildi. Ya'ni, moliyaviy savodxonlik – fuqarolarning o'z (yoki oilasi) moliyasini to'g'ri boshqarishi uchun zarur bilim va ko'nikmalar majmuasi hisoblanadi. Tadbirkorlarning ish faoliyatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish borasida ham tavsiyalar berildi.

Ishtirokchilarga tadbirkorlik faoliyati bo'yicha qonunchiligimizga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalar haqida ham batafsil ma'lumotlar berildi. O'quv seminari davomida tadbirkorlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-20 15:50:24